

O‘ZBEKISTONDA EKSPORT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI
MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Makroiqtisodiyot kafedrası professori

Maxmudov Nosir

Magistr - Isomjonov Olimjon Otabek o‘g‘li

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda O‘zbekistonda eksport faoliyatini rivojlantirishdagi muammolarni bartaraf etish yo‘llari haqida so‘z yuritamiz. Birgalikda O‘zbekistonda eksport faoliyatini rivojlantirishda duch keladigan muammolar hamda muammolarni bartaraf etish yo‘llarini, choralarini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: Eksport, eksport faoliyati, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, muammolarni bartaraf etish, **eksport salohiyati**, mahalliy eksport qiluvchilar, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, davlat jamg‘armalari, Eksportni rivojlantirish agentligi, milliy eksport, “yagona oyna” tamoyili.

Annotation: In this article, we will talk about ways to eliminate problems in the development of export activities in Uzbekistan. Together, we will consider the problems encountered in the development of export activities in Uzbekistan, as well as ways and measures to eliminate them.

Keywords: Export, export activities, support for entrepreneurs, troubleshooting, export potential, local exporters, financial support, state funds, Export Development Agency, national export, "one window" principle.

Аннотация: В этой статье мы поговорим о способах устранения проблем в развитии экспортной деятельности в Узбекистане. Вместе рассмотрим проблемы, возникающие при развитии экспортной деятельности в Узбекистане, а также пути и меры по их устранению.

Ключевые слова: Экспорт, экспортная деятельность, поддержка предпринимателей, устранение неполадок, экспортный потенциал, местные экспортеры, финансовая поддержка, государственные средства, Агентство по развитию экспорта, национальный экспорт, принцип «одного окна».

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda eksport faoliyatini rivojlantirishdagi muammolarni bartaraf etish maqsadida ko‘plab islohotlar olib borilmoqda. Bularni quyidagilar misolida ko‘rsak bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda “Tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari

t

o

‘

‘

yaratishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq, **O‘zbekistonda eksport salohiyatini oshirish va eksport qiluvchi korxonalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda COVID-19 pandemiyasi oqibatlari keltirib chiqargan global iqtisodiy inqiroz sharoitida tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini yanada rag‘batlantirish muhim ustuvorliklardan biri hisoblanadi.**

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag‘batlantirish agentligi - mahalliy eksport qiluvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun vakolatli organ hisoblanadi.

U eksport qiluvchilarga xalqaro ko‘rgazma va yarmarkalarda ishtirok etish, milliy mahsulotlar va brendlarni tashqi bozorlarga chiqarish hamda xalqaro standartlashtirish hamda xalqaro sertifikatlarni olish uchun sarflangan harajatlarni kompensatsiya qilib beradi.

Bundan tashqari, eksport qiluvchilar Agentlikka murojaat qilib, mahsulotni eksport bozorlariga tashish bilan bog‘liq xarajatlarning 50 foizigacha qoplash uchun kompensatsiya, shuningdek, sug‘urta xizmatlari eksport qiluvchilar tomonidan garov sifatida foydalanilgan taqdirda sug‘urta mukofotining kompensatsiyasini olishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘tgan yilning 21-oktyabrda qabul qilingan “Eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni mamlakatda eksportni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora - tadbirlarning mantiqiy davomi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Hujjat eksport qiluvchilar uchun bir qator qo‘shimcha imtiyozlarni nazarda tutadi. Xususan, hujjatda Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi tomonidan eksport qiluvchi korxonalariga beriladigan kompensatsiyalar va kafolatlar bo‘yicha yangi imtiyozlar tasdiqlandi.

Birinchiidan, agarda bugungi kunga qadar tijorat banklarining eksportoldi kreditlari bo‘yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiyalar faqat ishlab chiqaruvchilar - eksport qiluvchilarga berilgan bo‘lsa, endilikda

Farmonga binoan ushbu preferensiya asosiy faoliyati savdo vositachiligi bo‘lgan eksport qiluvchilariga ham joriy etiladi.

Ikkinchiidan, shu vaqtgacha eksport qiluvchilarning tijorat banklaridan olingan kreditlar bo‘yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiyalarni taqdim etish foiz stavkasi qayta moliyalash stavkasining 1,5 baravaridan oshmaydigan kreditlarga nisbatan hamda faqatgina qayta moliyalash stavkasidan oshib ketgan qismida amalga oshirilgan. Endi esa, foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya foiz stavkasi

hamda kredit hajmidan qat'iy nazar taqdim etiladi.

Uchinchidan, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun tijorat banklaridan olinadigan kreditlar bo'yicha taqdim etiladigan kafolat miqdori (kredit miqdorining 50 foizigacha) 4 milliarddan 8 milliard so'mgacha oshirildi.

To'rtinchidan, bugungi kunga qadar kompensatsiya berilgan ilgari ajratilgan kredit bo'yicha qarzdorlik yuzaga kelgan taqdirdagina, eksport qiluvchi kompensatsiya va kafolat olish imtiyozidan qayta foydalana olmas edi.

Endi esa, oldingi kreditlar bo'yicha majburiyatlarga qaramay, ijobiy kredit tarixi bo'lgan holda qo'shimcha kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya va kafolatlar beriladi. Shu bilan birga, taqdim etilgan kafolatlar bo'yicha olinadigan komissiya miqdori 1 foizdan 0,5 foizgacha kamayadi.

Ta'kidlash joizki, Farmonning qabul qilinishi bilanoq mahalliy eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash davlat instituti sifatida Eksportni rivojlantirish agentligining funksiyalari hamda vakolatlari kengaytirildi.

Endilikda Agentlikka tijorat banklarini eksportgacha moliyalashtirish va eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalarini amalga oshirishga kreditlar ajratish uchun moliyaviy resurslarni taqdim etish, shuningdek xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, xorijiy banklar va moliya kompaniyalari mablag'larini eksportgacha moliyalashtirishga jalb qilish bo'yicha vazifalarni hal qilish vakolati beriladi.

Ushbu maqsadda Eksportni rag'batlantirish agentligi huzurida Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etilmoqda va uning hisobidan tijorat banklariga eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalarini moliyalashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish maqsadida moliyaviy resurslarni ajratish mexanizmi joriy etiladi.

Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining resurs bazasini shakllantirish hamda faoliyatini boshlash uchun O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan 100 mln AQSh dollari miqdorida mablag' ajratiladi.

Jamg'armani tashkil etish eksportni qo'llab-quvvatlash bir butun Milliy tizimini shakllantirishning muhim bosqichiga aylanadi, uning funksional elementlari Eksportni rag'batlantirish agentligi hamda "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi hisoblanadi.

Kompensatsiya, subsidiyalar va moliyalashtirishni ta'minlashdan tashqari, boshqa yana tizimning funksiyalariga eksport shartnomasini tuzish bosqichigacha xorijiy xaridorni topish hamda muzokaralar jarayonida mahalliy eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash, jumladan, respublika vazirliklari va idoralari, mahalliy hokimiyat organlari bilan eksport qiluvchilarning milliy eksport mahsulotlarini chet elga sotish, eksportni qo'llab-quvvatlash choralari, vakolatli davlat hukumat organlarining vazifalari, mavjud imtiyozlar va preferensiyalar, hamda funksiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishini ta'minlash bo'yicha tizimli hamkorlikni o'rnatish kiradi.

Milliy eksportni qo'llab-quvvatlash tizimining o'ziga xos afzalliklari - eksportchilarni "yagona oyna" tamoyili asosida kompleks qo'llab-quvvatlash imkoniyati hamda ularga o'z faoliyatida duch keladigan masalalarning keng ko'lamini hal etishda vaqt yo'qotishlarini va moddiy xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi.

O'tgan yillarda eksport bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun chet el valyutasining ayrim qismini majburiy sotish tizimi bekor qilinganligi, rasmiy va norasmiy valyuta kurslarining birlashtirilganligi, milliy valyutaning kursi deyarli 100 foiz pasayishiga olib keldi (bu degani, amalga oshirilgan choralar aynan eksport bilan shug'ullanadigan korxonalar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan).

Ushbu faktorlar eksportni o'sishiga hamda eksportga mo'ljallangan modelni shakllantirishga qaratilgan va eksport bilan shug'ullanadigan korxonalar uchun juda qulaydir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar raqobatdoshligini ta'minlash va eksportini rag'batlantirishga doir qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida"gi farmonga imzo chekdi. Ushbu hujjat qonun tomonidan o'ziga xos deb hisoblangan mahsulotlardan tashqari barcha eksport qilinayotgan mahsulotlarni bojdan ozod qildi va eksportni litsenziyalashtirishni bekor qildi.

Avvallari O'zbekistonda eksport oldi moliyalashtirish faoliyati hech qachon olib borilmagan edi. 2017-yildan boshlab, to hozirga qadar O'zbekiston banklari tomonidan eksport oldi moliyalashtirish mexanizmlarini tatbiq etish ishlari boshlandi. Bu esa eksportga mo'ljallangan rivojlanish tizimini faollashtirishda muhim qadam bo'ldi.

Shunday qilib, davlat iqtisodiyotini import o'rnini bosish modelidan eksportni rivojlantirish modeliga o'tish ishlari olib borilmoqda.

Eksportni rivojlantirishning asosiy omili bu eksport qilinadigan bozorlarni hamda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni diversifikatsiyalashtirishdir.

Bozorlarni diversifikatsiyalashtirish – bu O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sotiladigan davlatlar sonini ko'paytirishdir va geografiasini kengaytirish.

Eksport qilinayotgan mahsulotlarni diversifikatsiyalashtirish – bu eksport qilinayotgan mahsulotlarning turlarini oshirishdir.

2022-yilning birinchi choragida O'zbekiston eksporti 2,4 baravar oshib, 5,7 mlrd dollarga yetdi. Eksport tarkibining yarmidan ko'prog'i oltin savdosidan iborat bo'ldi. Oltinni hisobga olmaganda, eksport o'sishi 15,8 foizga teng bo'ldi. Import esa 44,6 foizga o'sib, 7,4 mlrd dollarni tashkil etdi.

2022 yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 13,15 mlrd dollarni tashkil etdi, bu 2021 yilning shu davriga nisbatan 5,6 mlrd dollarga (74,8 foizga) ko'pdir, deya xabar beradi Davlat statistika qo'mitasi.

Tashqi savdo umumiy hajmidan eksport 5,7 mlrd dollarni (2021 yilning yanvar-martiga nisbatan 138,7 foizga yoki 2,4 baravarga o'sgan), import esa 7,4 mlrd dollarni

(o'sish 44,6 foiz) tashkil etdi.

Natijada tashqi savdo aylanmasi savdosi 1,6 mlrd dollar miqdoridagi passiv balansni tashkil etdi, bu 2021 yilning birinchi uch oyidagiga nisbatan (2,7 mlrd dollar) uchdan birdan ko'proqqa kamdir.

Bugungi kunga qadar O'zbekiston dunyoning 160 ta davlati bilan savdo aloqalarini o'rnatgan. Tashqi savdo aylanmasining eng katta hajmi Xitoy (16,6%), Rossiya (14,2%), Qozog'iston (7,5%), Turkiya (5,9%), Koreya Respublikasi (4,8%), Germaniya (2,9%) va Qirg'iziston (1,7%) bilan qayd etilgan.

2022 yilning yanvar-mart oylarida eksport qiluvchi subyektlarning umumiy soni 3658 tani tashkil etdi. Bu, Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, oltinsiz eksport hajmini 2,8 mlrd dollarga yetganini ta'minladi. 2021 yilning shu davriga nisbatan bu 15,8 foizga o'sgan.

Shu bilan birga, oltin umumiy eksportning yarmidan ko'prog'ini — 51,5% yoki 2,9 mlrd dollarni tashkil etdi. Spot nashrining qayd etishicha, mart oyida yanvar-fevral oylarini ayirib tashlagan holda oltin eksporti 609 mln dollarni yoki oylik hajmning 36 foizini tashkil qilgan. Qimmatbaho metallar sotuvi sezilarli darajada sekinlashgani Markaziy bank ma'lumotlarida ham qayd etilgan. O'tgan yilning birinchi uch oyida O'zbekiston oltin sotmagan.

Eksport tarkibida sanoat tovarlari ulushi 19 foiz (1,09 mlrd dollar), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 4,9 foiz (281,8 mln dollar), kimyo va shunga o'xshash mahsulotlar 4,3 foizni (246 mln dollar) tashkil etdi.

2021 yilning dastlabki uch oyi davomida sanoat mahsulotlari eksporti 19,9 foizga, metall buyumlar eksporti 85 foizga, metall bo'lmagan mahsulotlar eksporti 30 foizga, ip-kalava va gazlamalar eksporti 20,8 foizga o'sdi. Oziq-ovqat eksporti o'tgan yilning yanvar-martiga nisbatan 23 foizga, kimyo mahsulotlari eksporti 7,6 foizga oshgan. Avtomobil eksporti ikki baravardan ko'proq kamaydi.

Eksport tarkibida xizmatlar 9,8 foizni tashkil etib, O'zbekistonga 567,7 mln dollar keltirdi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,9 foizga ko'pdir.

529,7 mln dollarlik xizmatlar import qilindi (umumiy tuzilmada 7,2 foiz), bu 2021 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 46,4 foizga ko'pdir.

Xulosa:

O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini kengaytirish uchun qulay sharoit yaratishdir.

Buning uchun so'nggi yillarda davlat va hukumat rahbari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlovchi milliy institutlar tashkil etish to'g'risida qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Tashqi savdo va eksport ko'rsatkichlari sur'atining umumiy ijobiy dinamikasidan

kelib chiqib, uning hajmlari, shuningdek tarmoqlardagi eksport hajmlarining amalda o‘shirish sur‘atlarini oshirishni davom ettirish tavsiya etildi.

Bundan tashqari, investitsiya faoliyati va eksport subyektlarini qo‘llab-quvvatlash sohasida tadbirkorlar biznes rejalari va rivojlanish strategiyasini amalga oshirishi uchun ularga qulay sharoitlar yaratish maqsadida qonunchilik takomillashtirilmoqda.

Eksport nazoratini o‘tkazishda, ya’ni zarur eksport sertifikatlarini olish va eksport bojxona rasmiylashtiruvini uchun ham muhim o‘zgarishlar yuz bermoqda.

Sohani rivojlantirish uchun chuqur marketing tadqiqotlari o‘tkazish, uzoq muddatli barqaror savdo bozorlarini shakllantirishga, tashqi savdo infratuzilmasini, shu jumladan, chet ellarda yaratishga lozim darajada e’tibor qaratish tavsiya etildi.

Tadbir davomida davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlarni hisobga olgan holda eksport bo‘yicha qonunchilik islohotlarining asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi.

Shuningdek, O‘zbekistonda eksportni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar va takliflar ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda “Tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-268-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar raqobatdoshligini ta’minlash va eksportini rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. <https://lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonunlar bazasi.
5. [https://dunyo.info/uz-O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining "Dunyo" axborot agentligi rasmiy veb-sahifasi.](https://dunyo.info/uz-O'zbekiston-Respublikasi-Tashqi-ishlar-vazirligining-Dunyo-axborot-agentligi-rasmiy-veb-sahifasi)
6. [https://kun.uz.](https://kun.uz)
7. [https://elibrary.uz.](https://elibrary.uz)